

“Tabiiy birikmalar kimyosi” mavzusida xalqaro Simpozium o‘tkazildi


Joriy yil 7-8-oktyabr kunlari Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi institutida akademik Hamidilla Aripov xotirasiga bag‘ishlangan “Tabiiy birikmalar kimyosi” mavzusida xalqaro Simpozium o‘tkazildi. Har ikki yilda bir marotaba o‘tkaziladigan ushbu simpoziumda 20 yaqin davlatlardan akademiklar, professorlar, soha mutaxassislari va yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.



Tadbirda dastlab ushbu xalqaro simpoziumga asos solgan akademik H.Aripov xotirlandi va uning faoliyatiga bag‘ishlangan film namoyish etildi. Akademikning faoliyati, u yaratgan ilmiy maktab haqida yaxshi fikrlar bildirildi. Ushbu simpozium kimyo sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun juda muhimligi, o‘zaro tajriba va bilim almashadigan ilmiy maydon ekanligi ta’kidlandi.



Ikki kun davom etgan simpoziumda Rossiya, Xitoy, Turkiya kabi 20 yaqin davlatlarda tabiiy birikmalar kimyosi, farmakologiyasi va texnologiyalari sohasidagi yutuqlar, muammolar va istiqboldagi vazifalar muhokama etildi. 2 ta plenar, 28 ta og'zaki va 121 ta devoriy ma'ruzalar tinglandi hamda yangi rejalar belgilandi.



Ma'lumot o'rnida: Abu Rayxon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati, akademik Aripov Hamidilla Nig'matovich o'simlik moddolari kimyosi, texnologiyasi va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish sohasidagi yirik olim edi.

H.Aripov o'z ilmiy faoliyatini 1964-yilda O'simlik moddolari kimyosi institutida boshlab, 1968-yili nomzodlik, 1979-yili doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Olimning ilmiy-tadqiqot ishlarining salohiyati, o'zbek tabiiy birikmalar kimyosi fanining rivojlanishiga, kimyo, farmatsevtika sanoatining o'sishiga qo'shgan beqiyos hissi nafaqat bizning vatanimizda, balki butun dunyo ilmiy hamjamiyatida ham tan olingan.

H.Aripov qariyb 35 yillik ilmiy va ijodiy faoliyati davomida kichik ilmiy xodim lavozimidan institut direktori va fan nomzodidan akademik darajasigacha ko'tarilgan.

H.Aripovning Institutning yangi texnologik korpusini loyihalashtirish va qurilishidagi, Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasidagi "Uzgen", Volgograd shahri "Ximprom" ishlab chiqarish birlashmasidagi "Butilkaptaks", Navoiy shahri EXZ korxonasidagi "Toluin" sanoat qurilmalarini yaratilishidagi xizmatlari beqiyosdir. Shuningdek, akademik tomonidan Dezoksipeganin gidrokloridi, Medamin, Fenasal, Butilkaptaks defolianti va boshqa bir necha yangi dori vositalari substansiyalarini yaratilgan va seriyali ravishda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Qishloq xo'jaligi uchun yangi "Butilkaptaks" defoliantini texnologiyasini yaratishdagi ulkan xizmatlari uchun 1984-yilda Abu Rayxon Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Qishloq xo'jaligida yuqori samarali fungitsidlar: Uzgen, Olgin, KMAX, Nikamizolon, Ridomil hamda gerbitsidlar: Toluin, Etoksilin, Kustsid va o'simlik o'sishini tezlashtiruvchi vositalar: Rozalin, Tetranil, Dorilin, Roslin ishlab chiqarilishi H. Aripov rahbarligida yo'lga qo'yilgan.

Dunyoda analoglari yo'q bo'lgan yurak aritmiyasi xurujiga qarshi yangi Allapinin dori vositasini amaliyotga joriy etishda H.Aripovning tashkilotchilik faoliyati yaqqol namoyon bo'lgan. Dori vositasini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyolarni Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi hududlaridan yetarli miqdorlarda import qilish tashkiliy ishlariga boshchilik qilgan, bu esa ushbu dori vositasi bilan Vatanimiz tibbiyoti talabini to'liq qondirishga va dori vositasi substansiyasini eksport qilishga imkoniyat yaratgan.